



O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TUZISH MUAMMOLARI



Ergasheva M.Sh.,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasи assistenti

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy natija to'g'risidagi hisobotni tuzishning dalzarb masalalari, muammolari va ularning yechimlari o'r ganilgan. Jumladan, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natija to'g'risidagi hisobotning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'z. Moliyaviy natija, sug'urta tashkiloti, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, daromad, xarajat.

Аннотация. В статье изучены актуальные вопросы составления отчёта о финансовом результате, существующие проблемы и пути их решения. В частности, исследованы особенности отчёта о финансовом результате в страховых организациях.

Ключевые слова: финансовый результат, страховая организация, международные стандарты финансовой отчётности, доход, расход.

Abstract. The article examines the pressing issues related to the preparation of the statement of financial results, its problems, and potential solutions. In particular, it explores the specific features of the financial result statement in insurance organizations.

Keywords: financial result, insurance organization, international financial reporting standards, income, expense.

Kirish

Dunyo amaliyotida mamlakatlar iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun sug'urta tashkilotlari faoliyatini tubdan isloh qilish, rivojlantirish orqali korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishning ahamiyati ortib bormoqda. Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda istiqbolli qarorlarni qabul qilishda moliyaviy axborotlarni ishonchliligi va shaffofligini taminlash muhim hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning statistik ma'lumotlariga ko'ra, "sug'urta sohasining dunyo yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi yildan yilga ortib bormoqda. 2022-yil yakuni bo'yicha AQSHda 12,7%, Angliya 11,1%, Germaniya 6,8% ni tashkil qilgan"¹. Shu boisdan, mamlakat iqtisodiyotida sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati dolzarbligini yanada oshiradi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tarkibida milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvi,

¹ <https://www.oecd.org/finance/insurance/oecdinsurancestatistics-sayti-malumotlari>.

global xavf-xatarlarning oshib borishi sharoitida xalqaro sug‘urta hamjamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublika hukumati tomonidan sug‘urta bozorini tubdan isloh qilish, davlatga tegishli yirik sug‘urta kompaniyalarini transformatsiya qilish, sug‘urta kompaniyalari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, sug‘urta bozori professional ishtirokchilari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning xalqaro standartlarini joriy qilish, eng muhimi, sug‘urta mahsuloti iste’molchilarining manfaatlarini ishchonchli himoyasini ta’minlash borasida qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Sohaning ilmiy tadqiqotchi-ekspertlari va tahlilchilari oldida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan qator vazifalar qatorida sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish vazifalarini ham qayd etish lozim. Sug‘urta tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda hisob siyosatini takomillashtirish, moliyaviy natijalar hisobini yuritishda biznes jarayonlarining taqdim etilgan tasnifi kesimida buxgalteriya hisobining funksional obyektlarini asoslash, sug‘urta tashkilotlarining faoliyatini real baholash uchun moliyaviy javobgarlik markazlari bo‘yicha ularni taqsimlash usullarini joriy etish, sug‘urta faoliyati davomida sug‘urta vositachilari tomonidan sodir etilgan tizimli qoidabuzarliklar va qo‘srimcha daromadlarni hisobga olish tartibi ishlab chiqish, MHXSga muvofiq sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish va shakllantirish modelini ishlab chiqish vazifalari mazkur muammolar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini namoyon etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

A.A.Karimovning tarifida “Moliyaviy natijalar – bu xo‘jalik yurituvchi subektning ma’lum xisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o‘ziga qarashli mablag‘ning oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya xisobida bunday faoliyat natijasi xisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi.”

R.R Obidovning fikricha “Moliyaviy natijalar - bu xo‘jalik yurituvchi subyektning ma’lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o‘ziga qarashli mablag‘ning oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi.”

Sug‘urta sohasinining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib moliyaviy natjalarga I.K.Ochilovning takidlashicha “Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy natijasi bu tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari va tan olingan boshqa daromadlar bilan tan olingan xarajatlarning farqi sifatida xisobot davrida o‘z faoliyati davomida shakillangan foya yoki zarar ko‘rinishida ifodalangan kapitalning kupayishi (kamayishi) hisoblanadi.”

Bizning fikrimizcha, sug‘urta tashkilotlarining “moliyaviy natijasi - ug‘urta shartnomalari buyicha ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari va tan olingan boshqa daromadlar bilan tan olingan xarajatlarning farqi xamda zaxiralar o‘zgarishining natijasidir”.

Moliya sektori tashkilotlarining, shu jumladan sug‘urta tashkilotlarining aktivlari va passivlarini hisobga olish, hisobot berish, baholash tizimini takomillashtirish zarurati, sug‘urta tashkilotlarida shu vaqtgacha amalda bo‘lgan buxgalteriya hisobi, hisobot berish va baholash tizimi ayniqsa, aktivlar va passivlar qiymati haqidagi ma’lumotlarni o‘lchash

va oshkor qilish MHXS qoidalariga mos kelmaganligi sababli yuzaga keladi. Xalqaro standartlarga o'tish anchayin kuch, mablag' va malakaliy kadirlarni talab etishi hich birimizga sir emas. Shu sababli milliy tizimdan bosqichma bosqich xalqaro standartlarga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujatlar, ilmiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Tashkilotlarning rasmiy saytlaridagi yillik hisobot ma'lumotidan foydalanilgan. Mavzuni o'rghanish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar


Sug'urta bozorining eng muhim ko'rsatkichi bu umumiyligini sug'urta mukofotlarining ichki yalpi mahsulotga nisbati hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichning qiymati so'nggi yillarda 0,32 dan 0,5% gacha bo'lган, 2022 yil yakunlariga ko'ra yalpi ichki mahsulotdagi sug'urta mukofotining ulushi 0,7%ni tashkil etgan bo'lib. Tahlilarimiz natijasida Respublikamizda sug'urta sohasining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi bir oz pastroq, rivojlangan AQSh, Angliya, Germaniya va qator boshqa davlatlarda 12%va 5% atrofida tashkil qiladi. Takidlash kerrakki Respublikamizda sug'urta sohasining ulushi bo'yicha MDH davlatlar ichida Qozog'istonidan keyingi 2- o'rinda ekanligi, umumiyligini sug'urta mukofoti hajmining yuqori o'sish ko'rsatkichlari har yili kamida 10%ga, mamlakatning barcha mintaqalarida filiallar, vakolatxonalar va sug'urta agentlari tarmog'i orqali sug'urtalovchilarning yuqori darajadagi ishtiroki, ko'p sonli sug'urta agentlari mavjudligi sug'urta bozorining holatini ijobjiy baholash mumkin deb hisoblaymiz.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida sug'urta bozorida raqobat muhitini yaratish, uning sug'urta kompaniyalari faoliyati rivojiga ijobjiy ta'sir etishini ta'minlash, raqobat sharoitida sug'urtalanuvchi va potensial sug'urtalanuvchilar uchun sug'urta kompaniyalari tomonidan ham sifatli, ham arzon narxdagi, shuningdek, qulay shartlardagi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. So'nggi paytlarda aholining o'z ijtimoiy ahvoli, mulkiy manfaatlarini himoya qilishga intilishi hamda daromadlilik darajasining ko'tarilishi sug'urta sohasida faoliyat yuritish istagidagi yuridik shaxslarning tashkil topishiga, raqobatbardosh sug'urta xizmatlarining yaratilishiga extiyojini oshirmoqda.

Sug'urta tashkilotlarining daromad hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, buni sug'urta tashkilotlarining tuzilgan shartnomalari sonidan kelib chiqib aytish mumkin. Respublikamizda sug'urta shartnomalari soni 2019-yilga nisbatan 2020-yilda -0,22 %ga, ya'ni 16,3 ming donaga kamayganligini ko'rish mumkin, bunga sabab 2020- yildagi pandemiya bo'lib, pandemiya nafaqat sug'urta sohasiga, balki iqtisodiyotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadidi. 2020-yilga nisbatan 2021-yilda 4,72 %ga o'sganini, 2022-yil holatiga 2,82 %ga o'sganini hamda 2023-yil 14,8 %ga o'sib borayotganligini ko'rish mumkin, ya'ni sugurta shartnomalari sonining ortib borishi sug'urta sohasining yildan-yilga rivojlanib borayotgani hamda sug'urta sohasiga ishonch ortib borayotganining isbotidir.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti muhim ahamiyatga ega deb baholash mumkin chunki sug'urta tashkilotlari ham moliyaviy

hisobotning xalqaro standartlar asosida hisobotlarini topshirishi belgilab qo'yilgan bo'lib bu borada olimlarimizning qarashlarini o'rganganimizda quyidagi fikirlarga etiborimizni qaratdik.



1-rasm. Sug'urta kompaniyalar tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalar soni, dona²


1-rasmda Respublikamizda faoliyati yuritayotgan sug'urta kompaniyalar tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalar soni yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz tadqiqotimiz davomida sug'urta tashkilotlarining MHXSLariga moslashish jarayonida buxgalteriya hisobi va tahlil tizimining sxemasini ko'rib chiqdik.

2-rasmda yagonabuxgalteriya hisobi va tahliliy tizim modeli sug'urta xizmatlari iste'molchilariga sug'urta kompaniyasini tanlashda talab qilinadigan axborot bazasini kengaytirish imkonini beradi. Sug'urtalanuvchilar sug'urta to'lovlari va sug'urta kompaniyalarining daromadlari bilan bog'liq o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Sug'urtalovchining boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashning asosiy manbai hisob va tahlil tizimi hisoblanadi. Bu faoliyat boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobida ma'lumotlarni aks ettirish usullari to'plami. Buxgalteriya hisobi va tahlil tizimi qaror qabul qilish paytida tashkilotning moliyaviy -iqtisodiy jarayonlari to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Shuningdek, u sug'urta tashkilotining statistik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun asosiy ma'lumot manbai bo'lib, uning asosida aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish, tarif stavkalarining hajmi va tuzilishini aniqlash, sug'urta kompaniyasining, umuman sug'urta biznesi moliyaviy barqarorligiga erishish uchun statistic baza shakllantiriladi va takomillashtiriladi. Shuning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun sug'urta tashkilotlarida mavjud buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Sug'urta tashkilotlarida MXXSga muvofiq moliyaviy hisobotni va tahliliy tizimni yaratish modeli³

17-sون MHXS "Sug'urta shartnomalari", Xalqaro buxgalteriya Standartlar kengashi (IASB) tomonidan chiqarilgan sug'urta tashkilotlari uchun eng so'nggi standart bo'lib, sug'urtani o'lhash, taqdim etish va oshkor qilish va sub'ektlar tomonidan chiqarilgan va ushlab turiladigan qayta sug'urta shartnomalarini tan olish tamoyillarini belgilaydi.

³ Muallif tafqiqotlari asosida tuzilgan.

Ushbu Standart, 4-son MHXSga o'xshab, shartnomalariga emas, balki huquqlarning turlariga e'tibor qaratadi.

Shuning uchun odatda, barcha huquqlar sug'urta shartnomalarida ask ettiriladi.

17-MHXS quyidagi shartnomalarga nisbatan qo'llaniladi:

- tashkilot tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari,
- tashkilot tomonidan chiqarilgan qayta sug'urta shartnomalari
- Sug'urta shartnomalarining bir qismi, ya'ni bir kompaniya topshirganda (sotilganda /berilgandagi xavf) qayta sug'urta kompaniyasiga (qayta sug'urta qilish shartnomalari tashkilot tomonidan o'tkaziladi).

• tashabbus shaklidagi investitsiya shartnomalari ishtirok etish xususiyatlari, bilan birgalikda tashkilot sug'urta shartnomalarini ham tuzadi (ixtiyoriy, chunki siyosat egasining foydasi ixtiyoriy va bozor bilan bog'liq).

17 – son MHXSning assosiy talablari:

1.Guruhash. Korxonalar, sug'urta va sug'urtasiz komponentlari bor mahsulotlarga ega. 17-MHXS tavsiya qiladiki, shartnomaning sug'uratalanmagan qismlari umumiy shartnoamadan alohida ajratilishi kerakligini va sug'urtalanmagan qism aniq bo'lsa hisob -kitoblar standartlari asosida yondashishni.

2.Bo'linish. Ushbu holatda kompaniyalar sug'urtasiz komponentlarini ajratishi va ularni alohida hisoblash standartlari ,masalan 9 MHXS va 15 MHXSga muvofiq hisobga olishi talab qilinadi. Investitsiya bilan bog'liq komponentlar odatda 9 MHXS ga asossan olib borilsa, 15 MHXS istalgan turdag'i komponentlarni ya'ni tovar va xizmatlarni qamrab oladi.

17- MHXSga muvofiq, dastlabki tan olishda korxonalar sug'urta shartnomalarining portfellarini aniqlashi zarur va ularni quyidagi kichik guruhlarga ajratishi kerek

- boshlanishida murakkab bo'lgan shartnomalar;
- keyinchalik murakkab bo'lish mumkin bo'lgan muhim ahamiyatga ega bo'limgan shartnomalar
- portfeldagi qolgan shartnomalar.

17-MHXS ni hamda 18-MHXS joriy etilishi hisobot shakllarini ham o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bunda hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlar tarkibi o'zgargan. Hisobot yangi shakllarda taqdim etilgan. O'zgarishlarni 1-jadvalda atroflicha yoritib berishga harakat qilamiz.

1-jadval

Foya va zararlar va umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot⁴

Nº	4-BHXS	17-BHXS hamda 18-MHXS
1.	Olingan bonus – netto (aniq)	Sug'urta tushumlari
2.	Foizlar, dividentlar va boshqa investitsion daromadlar	Sug'urta bilan bog'liq xarajatlar
3.	Yetkazilgan zararlar, to'lovlar, hisob-kitob xarajatlari - netto	Yetkazilgan zararlar, to'lovlar, hisob-kitob xarajatlari
4.	Sug'urta zahiralari bo'yicha o'zgarishlar	

⁴ Muallif tafqiqotlari asosida tuzilgan.

5.	Akvizitsion xarajatlari -Sotib olish xarajatlari sug'urta kompaniyasining yangi sug'urtalovchilarni jalb qilish va eskilarini saqlab qolish, shuningdek, yangi sug'urta shartnomalarini tuzish va amaldagilarini yangilash bilan bog'liq xarajatlaridir.	Akvizitsion xarajatlar-Sotib olish xarajatlari sug'urta kompaniyasining yangi sug'urtalovchilarni jalb qilish va eskilarini saqlab qolish, shuningdek, yangi sug'urta shartnomalarini tuzish va amaldagilarini yangilash bilan bog'liq xarajatlaridir.
		Moliyalashtirishdan oldingi foyda yoki zarar
6.	Foyda yoki zarar	Qayta sug'urtalashdan foyda yoki zarar
7.		Sug'urta operatsiyalari bo'yicha natija
8.		Investitsion daromad
9.		Moliyaviy xarajat
10.		Jami moliyaviy natija
11.		Diskont stavkasini o'zgarishi – sug'urta majburiyati bo'yicha
12.		Jami umumlashgan daromad

Sug'urta tashkilotlarining foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotimizning qiyosiy tahlilimiz shuni kursatadiki, asosiy o'zgarishlar quyidagilarda bo'lganligini ko'rshimiz mumkin.

- investitsiya qoldig'i sug'urta shartnomasi bo'yicha daromaddan chiqarib tashlanadi;

- xarajatlar va daromadlar yuzaga kelgan yoki olingan sifatida tan olinadi;
- sug'urtani moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlar sug'urta xizmati doirasida hosil bo'lgan umumiyligi summadan olinadi. Ushbu xarajatlar umumiyligi moliyaviy hisobotda yoki umumiyligi moliyaviy hisobotda va xarajatlar va buxgalteriya smetalarida aks ettiriladi, har bir alohida holatda bu joriy hisob siyosatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi;

18-MHXS talabiga asosan moliyalashtirishdan oldingi foyda yoki zarar ko'rsatkichi ham muhim ko'rsatkich deb baholangan;

- mukofotlar eslatmalarda e'lon qilinadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytish mumkinki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda alohida ko'rsatkichlarni tahlil qilish tizimini ham ishlab chiqish zarur. Ya'ni sug'urta tashkilotlariga MHXS joriy etishda ko'rsatlichlarni tahlilini quyidagi ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalish quyidagi ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarining o'zgarishini taqqoslashni o'z ichiga oladi: olingan sug'urta mukofotlari miqdori; to'langan zarar; tuzilgan sug'urta shartnomalari soni; to'lovlar soni; qabul qilingan sug'urta javobgarligi hajmi; ishni yuritish xarajatlari. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra, bu ko'rsatkichlar sug'urta summalarining rentabellik darajasi, yo'qotish darajasi, olingan badallarning umumiyligi miqdorida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qilingan xarajatlar ulushi va jiddiylik koeffitsienti shakllanishining omil ko'rsatkichlari hisoblanadi. Sug'urta

kompaniyasining kiruvchi pul oqimlarini shakllantirishni ta'minlaydigan indikator qiyamatlarining eng dinamik o'sish sur'atlariga olib keladigan bunday boshqaruv faoliyatini samarali deb atash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov I.K. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil metodologiyasini takomillashtirish. O'quv qo'llanma . 2022y
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. №404. 2016 yil 13aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni (yangi tahrir). - T.: 2021 yil 25 may (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. 358- II-sonli- "Xalq so'zi". 2022 yil 24-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida »gi PQ-4611-ton qarori. 2020 yil 24 fevral.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasiga asosan Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2024 yil 4 iyuldagagi 7-sonli buyrug'i bilan Sug'urtalovchilar tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 13 avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3549) davlat ro'yxatidan o'tkazildi.
7. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009 yil 19-martdagagi "Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 37-ton buyrug'i (O'zR AV tomonidan 20.04.2009 yilda 1945-ton bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).
8. Винникова И.С. Финансовый анализ страховых организаций. Учебное пособие. – Н. Новгород: ВГИПУ, 2017.
9. Shennayev X.M. va boshqalar. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. -T.: Tafakkur bo'stoni, 2014.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

